



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

(Dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – mart


2020-yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **65,9** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **11,5** birlikni tashkil qildi.

2020-yilning yanvar – martida **1,6** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **90,5%** ni tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda - 459 ta, sanoatda - 396 ta, qurilishda - 93 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 379 ta, yashash va ovqatlanishda 106 ta, tashish va saqlashda - 37 ta tashkil etilgan.

2020 – yil yanvar – mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2019 – 2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko’rsatkichlari

	O’lchov birligi	2019- y.	2020- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni:	birlikda	13335	16742	3407
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni:	birlikda	1804	1633	-171
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	65,7	65,9	0,2
Sanoat	%	26,4	31,4	5,0
Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi	%	99,8	98,3	-1,5
Investitsiya	%	66,5	63,4	-3,1
Qurilish	%	95,6	96,2	0,6
Savdo	%	77,2	81,6	4,4
Xizmatlar	%	67,0	64,6	-2,4
Yuk tashish	%	90,3	91,3	1,0
Yuk aylanmasi	%	88,1	86,7	-1,4
Yo’lovchi tashish	%	94,0	94,0	0,0
Yo’lovchi aylanmasi	%	86,1	96,1	10,0
Eksport	%	79,1	82,9	3,8
Import	%	96,7	60,0	-36,7



2020 – yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020- yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Urganch shahrida – 283 ta, Yangibozor tumanida – 166 tani, Gurlan tumanida – 159 tani, Qo'shko'pir tumanida – 150 tani, Urganch tumanida – 137 ta va Xonqa tumanida – 135 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Hazorasp tumanida – 82 ta va Shovot tumanida – 69 tani tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- yil yanvar – mart	2020-yil yanvar – mart	(+;-)
Xorazm viloyati	1804	1633	-171
Urganch sh.	347	283	-64
Xiva sh.	159	133	-26
tumanlar:			
Bog'ot	86	110	24
Gurlan	136	159	23
Qo'shko'pir	129	150	21
Urganch	272	137	-135
Hazorasp	182	82	-100
Xonqa	133	135	2
Xiva	115	93	-22
Shovot	104	69	-35
Yangiariq	76	116	40
Yangibozor	65	166	101



2020 – yil yanvar – mart holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da



2020 – yil yanvar – mart holatiga hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko‘p ulush Urganch shahrida - 17,3 %, Yangibozor tumanida – 10,2 %, Gurlan tumanida - 9,7 %, Qo‘siko‘pir tumanida - 9,2 %, Urganch tumanida - 8,4 %, Xonqa tumanida - 8,3 %, Xiva shahri - 8,1 %, Yangiariq tumanida – 7,1% va Bog‘ot tumanida – 6,7 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-mart	2020- yil yanvar-mart	(+;-)
Jami	1804	1633	-171
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	116	379	263
Sanoat	393	396	3
Qurilish	139	93	-46
Savdo	795	459	-336
Tashish va saqlash	45	37	-8
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	142	106	-36
Axborot va aloqa	10	23	13
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	12	34	22
Boshqa faoliyat turlari	152	106	-46

Ma’lumot uchun: 2020- yilning yanvar – martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i:

**Savdo
459 ta**

**Sanoat
396 ta**

**Qishloq, o‘rmon
va baliq xo‘jaligi
379 ta**


**Yashash va
ovqatlanish
106 ta**

**Qurilish
93 ta**


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

	2019- yil yanvar-mart	2020- yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Urganch sh.	347	283	-64
Urganch tumani	272	137	-135
Xiva sh.	159	133	-26
Xonqa tumani	133	135	2
Gurlan tumani	136	159	23
Qo'shko'pir tumani	159	150	-9
Yangibozor tumani	65	166	101

2020-yil yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng ko'p salmog'i Urganch shahrida – 283 ta.



Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirdorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - mart holatiga*




* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020 - yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 27,1 birlik, Xiva shahrida 17,8 birlik, Urganch tumanida 13,0 birlik. Yangiariq tumanida 13,0 birlik, Xiva tumanida 11,8 birlik, Yangibozor tumanida 13,1 birlik, Gurlan tumanida 10,5 birlik, Xonqa tumanida 9,3 birlik, va Hazorasp tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,1 birlikka to'g'ri keldi.




2020- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




- **Eng yuqori ko'rsatkich :** Urganch shahri - 27,1 birlik;
- **O'rtacha ko'rsatkich :** Urganch tumani - 13,0 birlik;
- **Eng past ko'rsatkich :** Hazorasp tumani - 7,1 birlikni, tashkil qiladi.

Bundan ko'rinishib turibdiki, Urganch shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Hazorasp tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'sish dinamikasi, yanvar - mart holatiga, %

2020 - yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 65,9 %ni tashkil qildi. (2019 - yilning yanvar - martida 65,7 %).





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (umumi hajmiga nisbatan %da)



2020- yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Xorazm viloyati	31,4	96,2	64,6	63,4
Urganch sh.	48,2	95,4	36,7	25,1
Xiva sh.	100,0	99,6	97,2	39,4
tumanlar:				
Bog'ot	72,6	98,0	96,5	97,4
Gurlan	46,3	100,0	98,4	91,4
Qo'shko'pir	23,3	97,5	96,3	93,8
Urganch	66,5	86,8	89,7	96,1
Hazorasp	3,6	100,0	94,4	80,6
Xonqa	74,9	95,3	94,8	90,2
Xiva	99,3	98,3	94,9	75,6
Shovot	35,8	100,0	96,4	58,2
Yangiariq	22,8	100,0	97,2	93,2
Yangibozor	79,0	91,9	96,5	90,9

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Xiva sh.(100 %), Xiva tumani (99,3 %), Yangibozor tumani (79,0 %), Xonqa tumani (74,9 %), Bog'ot tumani (72,6%).

Qurilishda-

Gurlan, Hazorasp, Shovot va Yangiariq tumanlari (100 %), Xiva sh. (99,6 %) va Xiva tumani (98,3 %).

Xizmatlarda-

Gurlan tumani (98,4 %), Xiva sh. va Yangiariq tumani (97,2 %), Bog'ot tumani va Yangibozor tumani (96,5 %).




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar - martida

- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 697,0 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 31,4 %) tashkil qildi. 2019-yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 117,6% ni tashkil qildi;
- 2 512,3 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 63,4 %) o'zlashtirildi va 2019-yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 118,0 % ni tashkil qildi;
- 3 512,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 96,2 %) bajarildi va 2019-yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil qildi;
- 4 977,5 mlrd.so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 64,6 %) 2019-yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil qildi;
- 5 Chakana savdo tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 81,6 % yoki 1505,1 mlrd.so'mi (o'sish 107,0 %) ni tashkil qildi;
- 6 30,7 mln.AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 82,9 %) miqdorida mahsulotlar (Tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2019-yilning yanvar-martiga nisbatan 1,2 mln.AQSH dollariga kamayib, 96,2 % ni tashkil qildi;
- 7 Avtomobil transporti yuk aylanmasi 2,0 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 86,7 %) ko'payishi ta'minlandi;
- 8 Yo'lovchi aylanmasi 1,9 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 96,1 %) ko'payishi ta'minlandi;




**Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga
oshirilgan eksport mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar)ning,
jami eksport hajmidagi ulushi, % da**



2020 – yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar) eksportning jami eksportdagи eng ko'п ulushini Yangibozor, Yangiariq, Bog'ot, Xiva, Qo'shko'pir, Xonqa va Gurlan tumanlarida - 100,0% Xiva shaxrida – 97,8 %, Urganch tumanida – 82,5%, Urganch shahar – 61,6% Shovot tumanida – 57,9%, eng past ko'rsatkich Hazorasp tumanida – 38,0%ni tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga
oshirilgan import mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar)ning,
jami import hajmidagi ulushi, % da**



2020-yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi eng yuqori ulushlari Yangibozor, Qo'shko'pir, Gurlan, Bog'ot, Xiva tumanlari va Xiva sh. – 100,0 %, Urganch shahrida – 98,0 %, Yangiariq tumanida – 70,1 %, Xonqa tumanida – 75,7 %, Urganch tumanida – 90,6 % va Shovot tumanida – 26,1%. Hazorasp tumanida esa eng past ko'rsatkich - 18,2 %ni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (190,6 mlrd. so'm), Xonqa tumani (95,3 mlrd. so'm), Yangibozor tumani (63,9 mlrd. so'm) Bog'ot tumani (58,6 mlrd. so'm) va Xiva tumaniga (57,8 mlrd. so'm) to'g'ri keladi. Qo'shko'pir tumanida (18,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






**2020- yil yanvar - mart holatiga jami
sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva sh. (100,0%), Xiva tumani (99,3%), Yangibozor tumani (79,0%), Xonqa tumani (74,9%), Bog'ot tumani (72,6%), Urganch tumani (66,5%), Urganch sh. (48,2%), Gurlan tumani (46,3%), Shovot tumani (35,8%), Qo'shko'pir tumanida (23,3%) va Yangiariq tumani (22,8%) ni tashkil etdi. Hazorasp tumanida (3,6%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




2020- yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (384,4 mlrd. so'm), Hazorasp tumani (179,1 mlrd. so'm), Gurlan tumani (156,3 mlrd. so'm), Urganch tumani (142,5 mlrd. so'm), Shovot tumaniga (133,5 mlrd. so'm) Xonqa tumani (108,8 mlrd. so'm), Bog'ot tumani (101,7 mlrd. so'm) va to'g'ri keladi.



**2020- yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi:
Urganch shahri (136,0 mlrd. so'm),
Xiva tumani (51,5 mlrd. so'm),
Urganch tumani (47,2 mlrd. so'm),
Xonqa tumani (36,7 mlrd. so'm),
Shovot tumani (35,6 mlrd. so'm),
Yangiariq tumani (33,3 mlrd. so'm)
hamda Gurlan tumani (32,4 mlrd.
so'm) shahar va tumanlariga to'g'ri keladi.





**2020- yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar
sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (290,1 mlrd. so'm), Urganch tumani (99,6 mlrd. so'm), Hazorasp tumani (87,1 mlrd. so'm), Xonqa tumani (70,9 mlrd. so'm) va Gurlan tumaniga (65,6 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **692** tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


2020- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoatdagi ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 5,5 %, sanoatda – 16,6 %, qurilishda – 13,4%, savdoda - 35,5%, xizmatlar sohasida – 29,0 %.

* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2020 - yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan so'f tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil I chorak bo'yicha hisobotida mahsulot sotishdan so'f tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 - yil I choragida, oxirgi yilda mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyati qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida - 14,7 punktga, sanoatda - 11,2 punktga, savdoda - 12,0 punktga, xizmatlarda - 6,0 punktga oshgani kuzatildi.

Shu bilan birga, barcha kuzatilgan korxonalarda umumiy iqtisodiy holatning ijobjiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning I - choragida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy vaziyati qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi sanoatda - 2,6 punktga, qurilishda - 0,1 punktga, xizmatlarda - 1,0 punktga oshgani kuzatildi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020 yillar I - chorakdagi iqtisodiy vaziyatni baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 - yil I choragida, oxirgi yilda mahsulot (tovar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilashga ishongan korxonalar barcha faoliyat turlari bo'yicha ulushi oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyati yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 2,5 punktga, sanoatda - 0,7 punktga kamaydi.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 - 2020 yillar I - chorakdagi iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020 - yil I choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi. Unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 136 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 28 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 20,6%), qurilish – 8 ta (5,9%), savdo – 44 ta (32,5%) va xizmatlar – 28 ta (20,4%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 28 ta (20,6%).


2020- yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



2020 - yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 - yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 - yilning I choragida iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholaydigan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari korxonalarida sezilarli darajada kamayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning I choragida 2019 - yilning I chorakka nisbatan iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida - 8,9 punktga, sanoatda - 4,7 punktga, qurilishda - 20,8 punktga, savdoda - 16,8 punktga, xizmatlarda - 19,1 punktga oshgani kuzatildi.

Joriy yilning I choragida 2019 - yilning I chorakka nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 3,6 punktga, sanoatda - 3,5 punktga, savdoda - 6,8 punktga, xizmatlarda - 3,6 punktga o'sishi kuzatidi.

2019 - 2020 yillar I - chorakdagi yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra 2020 - yilning I choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyati yaxshilashga ishongan sanoat korxonalari ulushi - 0,6 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagagi iqtisodiy vaziyati o'tgan yilga nisbatan o'zgarishsiz qoladi deb hisoblaydigan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida - 3,6 punktga, qurilishda - 13,9 punktga, savdoda - 2,3 punktga, xizmatlarda - 42,6 punktga ulushi ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyati yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi kuzatilmadi.



2019 -2020 yil I - choragida yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da





**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: T.Xodjaniyazov

Tel.: (0372) 230-87-66